



## **Xiva shahriga temir yo'lining kirib kelishi**

**Otaboyev Rahmonbek Maqsudovich**

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali o'qituvchisi. Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali, Urganch, O'zbekiston. +998999671074.

hermanvamberi@gmail.com

### **Annotatsiya**

Bu izlanishda Xiva shahriga temir qurilishi haqida ma'lumotlar berib o'tilgan. Bunga qo'shimcha ravishda Xiva xoni Muhammad Rahimxon Soniy va bosh vazir Islomxo'jalarning Xiva shahriga temir yo'l olib kelish uchun qilgan say-harakatlari haqida ham qisman ma'lumot berib o'tilgan. Va albatta mustaqillik yillarida prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan Urganchdan Xivaga temir yo'l qurish ishlarini boshlab berishi va tez yurar poyezdlarni Xivaga qatnovini yaqin yillarda yo'lga qo'yilishi haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

### **Аннотация.**

В этом исследовании информация о строительстве железа была передана городу Хиве. Кроме того, частично сообщалось об усилиях хивинского хана Мухаммада Рахимхана Сони и премьер-министра Исламходжи по проведению железной дороги в Хиву. И конечно, в годы независимости наш президент Ш.М. Мирзиёев проинформировал о строительстве железной дороги Ургенч-Хива и запуске скоростных поездов в Хиву в ближайшие годы.

### **Abstract.**

In this research, information about the construction of iron was given to the city of Khiva. In addition, the efforts made by Khan of Khiva Muhammad Rahimkhan Soni and Prime Minister Islamkhoja to bring a railway to Khiva were partially reported. And of course, during the years of independence, our president Sh.M. Mirziyoyev informed about the construction of a railway from Urganch to Khiva and the launch of high-speed trains to Khiva in the coming years.

**Tayanch so'z va iboralar:** tez yurar poyezd, vokzal, temir yo'l, transport, ko'prik, elektrlashtirish, vagon.

**Ключевые слова и выражения:** скоростной поезд, станция, железная дорога, транспорт, мост, электрификация, вагон.

**Key words and phrases:** high-speed train, station, railway, transport, bridge, electrification, wagon.

Xiva xonligiga temir yo‘l olib kelish g‘oyasi XIX asrning 80 yillariga borib taqaladi va o‘sha davrda xon hukumati tomonidan ham qo‘llab quvvatlangan. Bunga Xiva xoni Muhammad Rahimxon Soniyning 1883 yil iyul-avgust oylarida Peterburg Moskvaga qilgan sayohati yaqqol misol bo‘la oladi. 1911-1913 yillar davomida Bosh vazir Said Islomxo‘ja temir yo‘l qurish uchun amaliy harakatlarni boshlab yuboradi. Islomxo‘janing islohot dasturida xonlikni markaziy shaharlar bilan bog‘laydigan temir yo‘l tarmog‘i qurilishi masalasiga ham katta e‘tibor qaratiladi [1]. Afsuski, dastlab Xiva xoni Muhammad Rahimxon II tomonidan boshlangan va keyinchalik bosh vazir Islomxo‘ja tomonidan davom ettirilgan temir yo‘l qurish ishlari armonligicha qolgan edi. Bu orzu mustaqilligimiz sharofati bilan va nihoyat ushaldi.

Xorazmga ilk bor temir yo‘l 1952 yilda kelgan edi. O‘shanda beri o‘tgan 60 yildan ortiqroq vaqt davomida u viloyatimizning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlab kelgan muhim omillardan biri bo‘lib keldi. Yarim asrdan ko‘p vaqt davomida Xorazm temir yo‘li o‘z faoliyatini takomillashtirib bordi. Yangi – yangi yo‘nalishlar, xizmat turlarini joriy qildi. Ayniqsa, mustaqillik yillari "O‘zbekiston temir yo‘llari", xususan viloyatimizning shu sohasi uchun ham jadal taraqqiyot davri bo‘ldi.

2004-yilda Amudaryo ustiga temir yo‘l ko‘prigining qurilishi yo‘lovchilarning uzog‘ini yaqin qildi. Avval Urganch - Toshkent yo‘nalishida yo‘lga chiqqan yo‘lovchilar manzillariga 23 soatda etib borgan bo‘lsalar, endi ular buning uchun 18 soat vaqt sarflaydigan bo‘lishdi. Urganch shahrining Bosh rejasini amalga oshirish va turizmni rivojlantirish dasturlari asosida 2012-yilda qayta tamirlangan Urganch temir vokzali viloyat markazining ko‘rkiga ko‘rk bo‘lib qo‘shiladigan ob‘ektlardan biri bo‘ldi [2].

Xiva shahrining tarixiy obidalari va ularni ko‘rishga ko‘plab turistlar kelayotgani e‘tiborga olib, "Afrosiyob" poyezdlariga moslab temir yo‘l barpo etish ko‘zlandi. Mazkur qurilish loyihasi Prezident Sh.M. Mirziyoyevning 2017 yil 27-28 yanvarda Xorazm viloyatiga tashrifi vaqtida taklif qilindi. 2017 yil 25 aprelda Prezident qarori bilan umumiy qiymati 35,9 million AQSH dollari bo‘lgan Urganch–Xiva oralig‘ida yangi temir yo‘l uchastkasini qurish, yangi Xiva vokzalini barpo etib, atrofni obodonlashtirish ishlari belgilandi [3].



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017 yil 25 apreldagi Urganch–Xiva yangi temir yo‘l liniyasining qurilishi to‘g‘risida”gi PQ-2927-sonli qaroriga asosan Urganch–Shovot bekatlari oralig‘ining 402-kilometridan yangi temir yo‘l qurilishi boshlandi [4]. Katta hajmdagi bunyodkorlik ishlariga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining birinchi o‘rinbosari, “O‘zbekiston temir yo‘llari” davlat aksionerlik jamiyati raisi O.J. Ramatov rahbarlik qildi. Bunyodkor temir yo‘lchilar dastlab Urganch vokzalidan Xiva shahrigacha umumiy uzunligi 33,78 km (asosiy yo‘l 29,6 km.) bo‘lgan temir yo‘lni zamon talablari darajasida qurdilar. Shu bilan bir qatorda 831.000 kubm. tuproq ishlari bajarildi, 93 ta sun‘iy suv inshootlari, 5 ta ko‘prik va 1 ta yo‘l o‘tkazgich, 10 ta qo‘riqlanuvchi pereyezd, 32,8 km. 10 kvT/s. elektr liniyasi barpo etildi va ishga tushirdi. Yangi vokzal atrofini obodonlashtirish, favvora qurish va ko‘kalamzorlashtirish ishlariga 204,75 mlrd. so‘m. sarflandi, shundan qurilish montaj ishlariga–189,8 mlrd. so‘m. xarajat qilindi [5].

Xiva shahrida vagonlarga texnik xizmat ko‘rsatish deposi va stansiya, 200 yo‘lovchiga mo‘ljallangan va milliy uslublar bilan uyg‘unlashgan zamonaviy vokzal, 74 nafar turistni qabul qiluvchi mehmonxona, 70 o‘rinli restoran ham barpo etildi. Yana hududda 84 va 56 o‘ringa mo‘ljallangan ikkita mehmonxona, maydoni 57 sotixli sun‘iy ko‘l, 27 xil attraksion, amfiteatr, zamonaviy savdo rastalari bo‘lgan Xiva–Lokomotiv istirohat bog‘i barpo etilishi davom ettirildi. Urganch–Xiva yangi temir yo‘l liniyasining qurilish ishlari 2018 yil sentyabr oyida tugatildi. 2018 yil 30 noyabrda birinchi poyezd keldi va vokzal 4 dekabrda boshlab yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsata boshladi [6].

2022 –yil 29-avgust kuni Shavkat Mirziyoyev Urganch shahrida buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdi haykalini ochib berdi. Prezident tadbirda so‘zlagan nutqida, 2024-yilda esa tezyurar poyezdini Xivaga olib kelish rejalashtirilmoqda [7].

Ayni paytda uzunligi 465 kilometr bo‘lgan «Buxoro-Urganch-Xiva» temir yo‘l liniyasini elektrlashtirish ishlari davom etmoqda. Uning ishga tushirilishi bilan Toshkentdan Xivaga yetib olishga yetti soat, Buxorodan Xivagacha uch soat vaqt ketadi. 2018 yilning kuzida Urganchdan Xivaga 33,7 kilometr uzunlikdagi temir yo‘l ochilgandi. Xivada esa temir yo‘l vokzali qurilib, foydalanishga topshirilgan[8].

Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent yo‘lovchi vagonlarni qurish va ta‘mirlash zavodiga tashrif buyurdi. Unda Toshkent-Xiva yo‘nalishiga qo‘yiladigan



tezyurar poyezd haqida axborot berildi. Bu uchun Janubiy Koreyaning “Hyundai Rotem” kompaniyasidan yuqori tezlikdagi elektropoyezd olib kelinishi mo‘ljallangan. 7 vagonga ega elektropoyezd 351 ta o‘rindiqqa ega bo‘ladi va soatiga 250 kilometr tezlikda harakatlana oladi. Xulosa o‘rnida shuni aytish ahamiyatliki, Xivaga poyezdning kelishi ota-bobolarimiz asriy orzusi ushaldi deya bemalol ayta olamiz. Xivaga tezkor poyezdning yaqin yillarda yetib kelishi Xiva shahri va umuman Xorazm viloyatining har tomonlama rivojiga hissa qo‘shadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Baxt yo‘li. — Urganch: “Murabbiy”, 1992. –B. 9.
2. <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/589>
3. Начато строительство железной дороги “Ургенч–Хива” // [www.gazeta.uz>ru](http://www.gazeta.uz>ru). 10.02.2018.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 25 апрелдаги Урганч–Хива янги темир йўл линиясининг қурилиши тўғрисида”ги ПҚ-2927-сонли қарори Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017, 17-сон(777).
5. Начато строительство железной дороги “Ургенч–Хива” [www.gazeta.uz>ru](http://www.gazeta.uz>ru). 10.02.2018.
6. Mahmudov M. Jumaniyozov F. Xorazm transporti kecha va bugun. — Buxoro: “Durdona” , 2020. – B. 111.
7. <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/589>
8. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/08/30/xiva/>